XALQ DEPUTATLARI SHEROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 5-may VII-10-70-8-119-K/25 Sherobod tumani

Sherobod tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi **299-sonli** qarorining **1-ilovasi** bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2025-yil 12-martdagi 67-8-119-F/25-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasi tomonidan Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shaharcha va qishloqlarlarining umumiy perimetri **844 772,12 metr** umumiy maydoni **265 230,75 gektar** ekanligi aniqlandi

Jumladan:

Yangiturmush qishlog‘i umumiy peremetri 197312,18 metr, umumiy maydoni 85056,28 gektar;

Seplon qishlog‘i umumiy peremetri 58096,49metr, umumiy maydoni 6626,52 gektar;

Rabotak qishlog‘i umumiy peremetri 49234,57 metr, umumiy maydoni 6061,89 gektar;

Chinobod qishlog‘i umumiy peremetri 37604,42 metr, umumiy maydoni 6111,83 gektar;

Sariqamish qishlog‘i umumiy peremetri 50699,19 metr, umumiy maydoni 7403,61 gektar;

Oqqo‘rg‘on qishlog‘i umumiy peremetri 57986,34 metr, umumiy maydoni 9227,12 gektar;

Ko‘hitang qishlog‘i umumiy peremetri 223212,71 metr, umumiy maydoni 129230,52 gektar;

Bo‘ston qishlog‘i umumiy peremetri 38406,28 metr, umumiy maydoni 6374,07 gektar;

Tallashqon qishlog‘i umumiy peremetri 46449,29 metr, umumiy maydoni 6672,53 gektar;

Sherobod shahar umumiy peremetri 19397,87 metr, umumiy maydoni 775,71 gektar;

Kilkon shaharchasi umumiy peremetri 8391,09 metr, umumiy maydoni 192,84 gektar;

Navbog‘ shaharchasi umumiy peremetri 8962,50 metr, umumiy maydoni 186,51 gektar;

Paxtaobod shaharchasi umumiy peremetri 10595,77metr, umumiy maydoni 243,82 gektar;

Sariqamish shaharchasi umumiy peremetri 6453,65metr, umumiy maydoni 172,05 gektar;

Yangiariq shaharchasi umumiy peremetri 9601,20metr, umumiy maydoni 225,95 gektar;

Zarabog‘ shaharchasi umumiy peremetri 15150,21metr, umumiy maydoni 497,62 gektar;

Cho‘yinchi shaharchasi umumiy peremetri 7218,36metr, umumiy maydoni 171,88 gektar;

Sherobod tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifidajoyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlar palatasining Sherobod tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Sherobod tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.Davlat kadastrlar palatasining Sherobod tumani filiali rahbari E.Musayevning Sherobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasi tomonidan Sherobod tumanidagi Shahar,shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2025-yil 12-apreldagi 01-02/46 sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Sherobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimligi matbuot xizmati (A.Toshtemirov) ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4.Ushbu qarorning tasdig‘i Surxondaryo viloyati Xalq deputatlari Kengashidan so‘ralsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari, xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman davlat kadastrlari palatasi Sherobod tumani filiali boshlig‘i E.Musayevlar zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi CHORIYEV ABDUZOIR
XXX

Xalq deputatlari Sherobod tumani
Kengashining
2025-yil 5-maydagi
VII-10-70-8-119-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Sherobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida
MA’LUMOT


Tartib raqami	Ma’muriy - hududiy birliklar nomi	Umumiy maydoni (gektar)	Umumiy uzunligi (metr)
1	Yangiturmush qishlog‘i	85056,28	197312,18
2	Seplon qishlog‘i	6626,52	58096,49
3	Rabotak qishlog‘i	6061,89	49234,57
4	Chinobod qishlog‘i	6111,83	37604,42
5	Sariqamish qishlog‘i	7403,61	50699,19
6	Oqqo‘rg‘on qishlog‘i	9227,12	57986,34
7	Ko‘hitang qishlog‘i	129230,52	223212,71
8	Bo‘ston qishlog‘i	6374,07	38406,28
9	Tallashqon qishlog‘i	6672,53	46449,29
10	Sherobod shahar	775,71	19397,87
11	Kilkon shaharcha	192,84	8391,09
12	Navbog‘ shaharcha	186,51	8962,50
13	Paxtaobod shaharcha	243,82	10595,77
14	Sariqamish shaharcha	172,05	6453,65
15	Yangiariq shaharcha	225,95	9601,20
16	Zarabog‘ shaharcha	497,62	15150,21
17	Cho‘yinchi shaharcha	171,88	7218,36
18	**Jami:**	**265230,75**	**844772,12**

Xalq deputatlari Sherobod tumani
Kengashining
2025-yil 5-maydagi
VII-10-70-8-119-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Sherobod tumanidagi ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash chegaralarining kartografik chizmasi

Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi qishloqlar shahar va shaharchalar chegaralarini belgilash ishlari bo'yicha

SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha	*Qashqadaryo viloyati yerlari*
B dan D gacha	*Boysun tumani yerlari*
D dan E gacha	*Bandixon tumani yerlari*
E dan F gacha	*Qiziriq tumani yerlari*
F dan G gacha	*Angor tumani yerlari*
G dan H gacha	*Muzrabot tumani yerlari*
H dan A gacha	*Turkmaniston yerlari*

Shartli belgilar

- Shaharlar va shaharchalar chegarasi
- Tumanlar chegarasi
- Qishloqlar (Ovullar) chegaralari
- Davlat chegaralari
- Viloyatlar chegaralari